Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 81'25
FILOLOGIYA

"FARHOD VA SHIRIN" DOSTONI INGLIZCHA TARJIMASIDA METAFORALARNI TARJIMA QILISH USULLARI

Sevaraxon Nematovna Fazildinova*
CAMU xalqaro tibbiyot universiteti
✉ sevarafazildinova6@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni inglizcha tarjimasida metaforalarni ifodalashda qo'llangan tarjima usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida metaforalarni tarjima qilish bo'yicha G.Toury, P.Newmark, M.Snell-Hornby, M.Dagut va boshqa olimlarning qarashlari umumlashtirilib, doston tarjimasi misolida ularning amaliy ahamiyati yoritiladi. Tarjimada metaforani saqlash, ekvivalent metafora bilan almashtirish, o'xshatish orqali ifodalash hamda semantik izohlash usullarining badiiy matn mazmuniga ta'siri baholanadi.

Kalit so'zlar

metafora, badiiy tarjima, tarjima usullari, semantik ekvivalentlik, lingvomadaniyat, Alisher Navoiy, Farhod va Shirin, ingliz tili.

DOI: 10.5281/zenodo.21743660

KIRISH

Metafora badiiy tafakkurning muhim vositalaridan biri bo'lib, u voqelikni yangi obraz va assotsiatsiyalar orqali ifodalashga xizmat qiladi. Mumtoz adabiyotda metaforalar muallif uslubining asosiy belgilaridan sanaladi. Shu sababli ularni tarjima qilish jarayoni nafaqat til birliklarini almashtirish, balki obrazlilik, emotsional ta'sir va madaniy mazmunni qayta yaratishni ham talab etadi. Metaforalar tarjimasi masalasi G.Toury, M.Snell-Hornby, P.Newmark, M.Dagut va boshqa olimlar tomonidan keng tadqiq qilingan. Ularning qarashlarida metaforaning semantik mazmuni bilan bir qatorda uning stilistik vazifasi va lingvomadaniy xususiyatlarini saqlash muhimligi ta'kidlanadi. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni metaforalarga boy bo'lib, ularni ingliz tiliga tarjima qilishda turli usullar qo'llangan. Ushbu maqolaning maqsadi mazkur usullarni tahlil qilish va ularning badiiy samaradorligini baholashdan iborat.

ASOSIY QISM

Badiiy matnda metaforalarni tarjima qilish tarjimon oldiga faqat leksik birlikni boshqa til vositasi bilan almashtirish emas, balki uning obrazlilik darajasi, emotsional ta'siri va lingvomadaniy mazmunini ham imkon qadar saqlash vazifasini qo'yadi. Shu sababli tarjimashunoslikda metaforalarni tarjima qilishning turli usullari ishlab chiqilgan. G. Toury, P. Newmark va L. Mildred tomonidan tavsiya etilgan yondashuvlar orasida metaforani saqlash, ekvivalent metafora bilan almashtirish, o'xshatish orqali ifodalash hamda metaforani izohlash yoki semantik vositalar orqali yetkazish eng ko'p qo'llaniladigan usullar hisoblanadi. Ushbu usullar "Farhod va Shirin" dostoni inglizcha tarjimasi misolida ham kuzatiladi.

Metaforani tarjimada saqlash

Tarjimada eng samarali usullardan biri metaforani asl shakliga imkon qadar yaqin holda saqlashdir. Bunday holatda asliyatdagi obraz, semantik yuklama va badiiy ta'sir tarjima matnida ham davom ettiriladi.

Asliyatda: "*Shahzoda ko'rdiki, otasi bu bazmda unga juda achchiq bir mayni tutdi".* (*Farhod va Shirin*, 51-b.)

Tarjimada: *"The prince understood that his father had passed a very bitter wine to him at his feast".* (*Farhod and Shirin*, p.65)

Mazkur misolda **"achchiq may"** bevosita ichimlikni emas, balki Farhod hayotida boshlanayotgan og'ir sinov va ruhiy iztirobni ifodalovchi muallif metaforasidir. Tarjimada **very bitter wine** birligi orqali metafora saqlab qolingan. Natijada ingliz tilidagi o'quvchi ham voqeaning salbiy emotsional fonini his eta oladi. Bunday yechim metaforaning lug'aviy ma'nosini emas, balki uning obrazli mazmunini ham yetkazishga xizmat qiladi.

Metaforani boshqa metafora bilan ifodalash

Tarjimada ayrim hollarda asl metafora tarjima tilidagi tabiiyroq metafora bilan almashtiriladi. Bunday yondashuv badiiy ta'sirni saqlab qolishga yordam beradi.

Asliyatda: *"Mening jismimni ishq o'ti nobud qilgan".* (*Farhod va Shirin*, 60-b.)

Tarjimada: *"Love burned my whole body out".*

Mazkur misolda o'zbek tilidagi **"ishq o'ti"** metaforasi ingliz tilida **Love burned my whole body out** ko'rinishida ifodalangan. Tasvir vositasi shaklan o'zgargan bo'lsa-da, ikkala birlikning semantik markazida "kuydirish", "yo'q qilish", "ichki iztirob" tushunchalari saqlanib qolgan. Tarjimon ingliz tilining badiiy me'yorlariga mos keluvchi metaforani tanlaganligi sababli tarjima tabiiy eshitiladi va asliyatdagi emotsional kuchni deyarli yo'qotmaydi.

Metaforani o'xshatish orqali tarjima qilish

Ba'zi hollarda metafora ingliz tilida to'g'ridan-to'g'ri emas, balki o'xshatish vositasida ifodalanadi.

Asliyatda: *"Feruza rang osmonday, qo'sh cho'qqili bu chodirning ikkita noni quyosh bilan oy edi".* (*Farhod va Shirin*, 61-b.)

Tarjimada: *"The turquoise of the firmament above the two domes of the tent appeared like the sun and the moon".* (*Farhod and Shirin*, p.83).

Bu misolda metaforik tasvir **appeared like the sun and the moon** shakliga o'tgan. Natijada obraz tushunarli bo'lib qolgan bo'lsa-da, metaforaning poetik kuchi qisman yumshaydi. Shunga qaramay, tarjimada asosiy semantik mazmun hamda estetik tasvir saqlanib qolganligi kuzatiladi.

Metaforani semantik vositalar orqali ifodalash

Tarjima jarayonida ayrim metaforalar maqsad tilida aynan qayta yaratilmaydi. Bunday hollarda tarjimon asliyatdagi obrazni emas, balki uning anglatgan mazmunini saqlashni ustuvor deb biladi. Natijada metafora denotativ ma'no orqali ifodalanib, matnning mazmuniy yaxlitligi saqlansa-da, obrazlilik darajasi pasayishi mumkin.

Asliyatda: *"- Ey, osmon kursisida o'ltirgan, yulduzlarcha qo'shin egasi, muborak yuzli, iffat pardasini yopingan malikam!"* (Farhod va Shirin, 184-b.)

Tarjimada: *"Hey my queen, sitting on the throne of heaven, you are the master of countless troops, a woman of great beauty and modesty".* (*Farhod and Shirin*, p.293)

Mazkur misolda tarjimon metaforalarning bir qismini semantik jihatdan soddalashtirgan. Jumladagi **"osmon kursisi"** obrazi saqlangan bo'lsa-da, **"yulduzlarcha qo'shin egasi"** birligi **countless troops**, **"iffat pardasini yopingan"** esa **modesty** orqali ifodalangan. Natijada mazmun yetkazilgan, biroq Sharq mumtoz adabiyotiga xos poetik obraz va madaniy konnotatsiyalar qisman yo'qolgan.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, "Farhod va Shirin" dostoni inglizcha tarjimasida metaforalarni ifodalashda bir nechta tarjima usullaridan foydalanilgan. Ular orasida metaforani saqlash usuli ko'proq uchraydi va aynan shu usul asliyatdagi obrazlilik hamda badiiy-estetik ta'sirni nisbatan to'liqroq saqlash imkonini beradi. Ekvivalent metafora bilan almashtirish esa tarjima tilining tabiiyligini oshirgan holda semantik yadroni saqlab qolishga xizmat qiladi. O'xshatish orqali tarjima qilish va semantik izohlash usullari ayrim hollarda mazmunni tushunarli qilgan bo'lsa-da, muallif uslubiga xos poetik qatlamning susayishiga sabab bo'lgan.

Shu jihatdan qaralganda, mumtoz adabiyot tarjimasida tarjimon oldida ikki muhim vazifa turadi: bir

tomondan, asliyatdagi obrazli tafakkurni saqlash, ikkinchi tomondan esa tarjima tili o‘quvchisi uchun tabiiy va tushunarli matn yaratish. Mazkur ikki omil o‘rtasidagi muvozanat badiiy tarjimaning muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostoni inglizcha tarjimasida metaforalarni ifodalashda turli tarjima usullaridan foydalanilganligini ko‘rsatdi. Tarjimada metaforani saqlash usuli asliyatdagi badiiy-estetik ta'sirni eng muvaffaqiyatli aks ettirgan bo‘lsa, ekvivalent metafora bilan almashtirish ingliz tilining uslubiy me'yorlariga mos ravishda obrazni qayta yaratishga xizmat qilgan. O‘xshatish orqali tarjima qilish hamda semantik izohlash usullarida esa mazmun saqlangan bo‘lsa-da, ayrim hollarda metaforaning lingvomadaniy va emotsional qatlamlari to‘liq ifodalanmagan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy “Farhod va Shirin” nasriy bayon muallifi G‘ofur G‘ulom. T:. “Adabiyot va san’at”, 1975, –245 b.
2. Alisher Navoiy “Farhod and Shirin” translated by Azam Abidov, Tbilisi-Tashkent, 2018, – 374 p.
3. Newmark P. A Textbook of Translation. –London: Prentice Hall, 1988. –292 p.
4. Nida E.A., Taber C.R. The Theory and Practice of Translation. – Leiden: Brill, 1969. – 206 p.
5. Toury G. Descriptive Translation Studies and Beyond. – Amsterdam: John Benjamins, 1995. – 328 p.
6. Ортега-и-Гассет. Теория метафоры. – М:. Прогресс, 1990. – С.74